BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELINI SAMARALI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xalmatova Dilobad Alimjanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-1224-8383
d.xalmatova@cspu.uz , +998949355259

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash modelini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. "Pedagogik diagnostika va korreksiya" fani misolida to'rt guruh shart-sharoit aksiyologik-motivatsion, axborot-didaktik va metodik, kognitiv-refleksiv va tashxisiy hamda klasterli-integratsion shart-sharoitlar asoslanadi. Ularning tayanch tamoyillari va talabalarda diagnostik ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik shart-sharoit, kompetensiyaviy yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik diagnostika, korreksiya, refleksiya, pedagogik klaster.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ МОДЕЛИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: *В статье анализируются педагогические условия эффективной реализации модели подготовки будущих учителей к профессионально-педагогической деятельности. На примере дисциплины «Педагогическая диагностика и коррекция» обоснованы четыре группы условий: аксиологически-мотивационные, информационно-дидактические и методические, когнитивно-рефлексивные и диагностические, а также кластерно-интеграционные. Показаны их опорные принципы и роль в развитии диагностических умений студентов.*

Ключевые слова: *педагогические условия, компетентностный подход, будущий учитель, педагогическая диагностика, коррекция, рефлексия, педагогический кластер.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF A MODEL FOR PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL PEDAGOGICAL ACTIVITY

Abstract: *The article analyzes the pedagogical conditions for the effective implementation of a model for preparing future teachers for professional pedagogical activity. Using the course "Pedagogical Diagnostics and Correction" as an example, four groups of conditions are substantiated: axiological-motivational, information-didactic and methodological, cognitive-reflective and diagnostic, and cluster-integrative. Their core principles and their role in developing students' diagnostic skills are shown.*

Keywords: *pedagogical conditions, competency-based approach, future teacher, pedagogical diagnostics, correction, reflection, pedagogical cluster.*

Kirish. Jahonning yetakchi oliy ta'lim tizimlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda transformativ va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur fanlar dunyoqarash shakllantiruvchi o'quv kurslari doirasidan chiqib, bo'lajak mutaxassisning kasbiy-shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash hamda fanlararo integratsiya vositasida ijtimoiy-madaniy kompetentligini yuksaltirish vazifasini bajarmoqda. Globallashuv sharoitida mehnat bozori talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning metodologik asosini bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatga ko'chirishni ta'minlovchi kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi.

YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida: "Sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, tizimli fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini yuqori darajada egallashni ta'minlaydi" [95], deb alohida ta'kidlanadi. Dunyo ta'limiy amaliyotida kechayotgan mazkur tendensiyalar kompetensiyaviy yondashuv zaminida bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy-tarbiyalanganlik darajasini metodologik jihatdan diagnostika qilish va korreksiyalash tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishni hamda fundamental pedagogik amaliyotlarni o'zaro integratsiya qilishni taqozo etmoqda.

[95] Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, Republic of Korea).

Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv doirasida ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning konseptual modellarini ishlab chiqish hamda ta'lim muhiti mazmuni va sifatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda. Raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va yuksak pedagogik madaniyatga ega kadrlar tayyorlashda samaradorligi isbotlangan pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini joriy etish yuzasidan jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Aichi pedagogika universiteti (Aichi University of Education, Yaponiya), Texnik o'qituvchilarni tayyorlash va tadqiqotlar milliy instituti (National Institute of Technical Teachers Training and Research, Hindiston), Shensi pedagogika universiteti (Shaanxi Normal University, Xitoy), Prinston universiteti (Princeton University, AQSH), Massachusets universiteti (University of Massachusetts, AQSH), Bilefeld universiteti (Bielefeld University, Germaniya), Rossiya Ta'lim akademiyasi, Seul kiber universiteti (Seoul Cyber University, Janubiy Koreya) hamda Respublika universitetlarida kompetensiyaviy ta'lim muhitini loyihalash va talabalar tayyorgarligini tashxislash tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan tizimli izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotda samarali qo'llay oladigan mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan professional pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirish hamda oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga diagnostik-korreksion xarakterdagi ilg'or metodikalarni joriy etish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan talabi hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotda muhim ziddiyat kuzatilmoqda: oliy ta'lim muassasalarida beriladigan nazariy bilimlar hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, bitiruvchilarning umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi real pedagogik vaziyatlarda o'quvchi muammosini tashxislash va uni bartaraf etishga kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmayapti.

Maqolaning maqsadi; "Pedagogik diagnostika va korreksiya" fani misolida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash modelini samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Pedagogik ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar [1–3], pedagogik shart-sharoitlar nazariyasiga oid ishlar [4–6] hamda refleksiya modellari [7; 8] o'rganildi.

Tahlil va natijalar. L.D.Starikova pedagogik shart-sharoitni o'qitish texnologiyasi kutilgan natijani berishi uchun bajarilishi shart bo'lgan talablar yig'indisi deb hisoblaydi [4], M.Ye.Duranov esa uni pedagogik jarayonni boshqarish omillarini amalga oshirish vositasi sifatida ko'radi [5]. L.F.Ivanova shart-sharoitlarni mazmuniy, texnologik va shaxsiy guruhlarga ajratadi [6]. Ushbu qarashlarga tayanib, pedagogik shart-sharoitlarni kompetensiyaviy yondashuvga tayangan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq didaktik chora-tadbirlar, metodik vositalar va tashkiliy shakllar tizimi sifatida ta'rifladik. Shu asosda to'rt guruh shart-sharoit ajratildi (1-jadval).

1-jadval. **Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari**

Shart-sharoitlar guruhi	**Tayanch tamoyil**	**Mazmuni**	**Model samaradorligiga ta'siri**
Aksiyologik-motivatsion	Mustaqil va kreativ faollik	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishga barqaror qadriyatli motivatsiya; andisha va lutfni shaxsiy pozitsiyaga aylantirish	Axloqiy-tarbiyalanganlik reproduktiv darajadan ijodiy darajaga ko'tariladi
Axborot-didaktik va metodik	Ta'lim mazmunining ilmiyligi	Yangi avlod darsliklari, raqamli didaktik materiallar, keys-stadi, HEMIS va Moodle testlari	Bilimdagi bo'shliqlar o'z vaqtida aniqlanadi, differensial-korreksion muhit yaratiladi
Kognitiv-refleksiv va tashxisiy	Tahliliy-tanqidiy fikrlash	G.Gibbs sikli va S.Brukfildning "to'rt ko'zgu" modeli ssenariyli modul sifatida	Diagnostik madaniyat va o'z faoliyatini tanqidiy baholash layoqati rivojlanadi
Klasterli-integratsion	Mustaqil va kreativ faollik, hamkorlik	Universitet – maktab – OAV hamkorligi ("Zavqli kun" ko'rsatuvi)	Ijtimoiy-kasbiy tayyorgarlik real axborot-ma'rifiy muhitda sinovdan o'tadi

Aksiyologik-motivatsion shart-sharoitlar talabada fanga qadriyatli munosabat uyg'otadi, andisha va lutf kabi milliy qadriyatlarni shaxsiy pozitsiyaga aylantiradi. Axborot-didaktik va metodik shart-sharoitlar doirasida fan uchun yangi avlod o'quv materiallari tayyorlanib [9], HEMIS va Moodle platformalarida raqamli topshiriqlar tizimi yo'lga qo'yildi; bu bilimdagi bo'shliqlarni uzluksiz tashxislash va tezkor tuzatish imkonini beradi. Kognitiv-refleksiv va tashxisiy shart-sharoitlarda G.Gibbsning refleksiv sikli [7] va S.Brukfildning "to'rt ko'zgu" modeli [8] amaliy mashg'ulotlarga ssenariyli modul sifatida kiritildi. Klasterli-integratsion shart-sharoitlar tayyorgarlikni real muhitda sinaydi.

Shart-sharoitlarda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan va interfaol yondashuvlarning diagnostik-korreksion funksiyalari uyg'unlashadi: har bir yondashuv ham tashxis, ham tuzatish vazifasini bajaradi.

Muhokama. Shart-sharoitlar alohida elementlar yig'indisi emas, balki yaxlit tizimdir: biror shart olib tashlansa, qolganlarining ta'siri susayadi. Ularning uyg'unligi talabada shaxsiy (o'z bilimidagi bo'shliqni ko'rish) va kasbiy (o'quvchi bilimidagi uzilishni aniqlash va tuzatish) diagnostika ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'z xatosini tahlil qila olgan talaba o'quvchi xatosini ham to'g'ri talqin qiladi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchini tayyorlash modelining samaradorligi aksiyologik-motivatsion, axborot-didaktik va metodik, kognitiv-refleksiv va tashxisiy hamda klasterli-integratsion shart-sharoitlar majmuasi yaratilishiga bog'liq. Ularni HEMIS, Moodle va pedagogik klaster platformalari orqali ta'minlash talabani diagnostik madaniyatli mutaxassisga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/4545884

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori. – URL: https://lex.uz/docs/4749364

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarori. – URL: https://lex.uz/docs/6079561

4. Старикова Л.Д. Компетентностный подход в педагогике: сущность и реализация. – М.: Академия, 2004. – 176 с.

5. Дуранов М.Е. Профессиональное образование и подготовка специалистов в условиях модернизации высшей школы. – М.: ИИТП РАН, 2002. – 216 с.

6. Иванова Л.Ф. Теоретико-методологические основы формирования профессиональной компетентности студентов педагогического вуза: Дис. … д-ра пед. наук. – Казань, 2005. – 380 с.

7. Gibbs G. Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods. – Oxford: Further Education Unit, Oxford Polytechnic, 1988.

8. Brookfield S.D. Becoming a Critically Reflective Teacher. – San Francisco: Jossey-Bass, 1995. – 296 p.

9. Xalmatova D.A., Allayorova S.B. Pedagogik diagnostika va korreksiya: Darslik. – Toshkent, 2025.